6-ilova

“Навоийуран” давлат корхонаси
Кузатув кенгаши қарори билан
ТАСДИҚЛАНГАН
(10.05.2025
йилдаги 13-сон баённома)

Annex 6

APPROVED
by the Supervisory Board
of the State Enterprise “Navoiyuran”
(Protocol № 13 , dated 10.05.2025
)

“NAVOIYURAN” DAVLAT KORXONASINING SANKSIYAVIY VA EKSPORT NAZORAT SIYOSATI	STATE ENTERPRISE "NAVOIYURAN" SANCTIONS AND EXPORT CONTROLS POLICY
1. Siyosatning maqsadi va qo‘llanilish doirasi	**1. Purpose and scope of the policy**
1.1 Ushbu Sanksiyaviy va eksport nazorat siyosatining (keyingi o‘rinlarda – “Siyosat”) maqsadi “Navoiyuran” davlat korxonasi va u boshqaradigan tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda – “Korxona”) tomonidan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Gonkong, Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanksiyalar va eksport nazorati to‘g‘risidagi tegishli qonun va qoidalariga (keyingi o‘rinlarda – “Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonun va qoidalar”) rioya etilishini ta’minlashdan iboratdir.	1.1 The purpose of this Sanctions and Export Controls Policy (hereinafter referred to as the "Policy") is to ensure that the State Enterprise "Navoiyuran" and its affiliated organizations (hereinafter referred to as the "Enterprise") adhere to the relevant laws and regulations governing sanctions and export control as established by the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland, the United States of America, the Hong Kong, the European Union and the United Nations (hereinafter referred to as the "Laws and Regulations on Sanctions").
1.2 Ushbu Siyosat Korxona boshqaruv organlariva xodimlariga (doimiy, vaqtinchalik va shartnoma asosida ishlaydigan), xizmat safaridagilarga, maslahatchilarga va Korxona yoki Korxonaning har qanday tashkiloti nomidan harakat qiluvchi har qanday boshqa shaxslar(keyingi o‘rinlarda – “Korxonaga aloqador shaxslar”)ga nisbatan qo‘llaniladi, shuningdek, Korxona o‘z faoliyatini amalga oshiradigan barcha mamlakatlardagi biznes operatsiyalari va tranzaksiyalarga tatbiq etiladi.	1.2 This Policy is applicable to the governing bodies and employees of the Enterprise, including but not limited to permanent, temporary, and contractual staff, those on business trips, consultants, and any other persons acting on behalf of the Enterprise or any of its affiliated organizations (hereinafter referred to as "Persons Associated with the Enterprise"). Furthermore, this Policy shall be extended to all business operations and transactions conducted in any jurisdiction where the Enterprise engages in its activities.
1.3 Ushbu Siyosat barcha Korxonaga aloqador shaxslar tomonidan amal qilinishi lozim bo‘lgan minimal standartni belgilaydi. Agar milliy qonunchilikda yuqoriroq talablar o‘rnatilgan bo‘lsa, Korxona ushbu talablarga rioya qiladi.	1.3 This Policy establishes the minimum standards that must be adhered to by all Persons Associated with the Enterprise. In instances where national legislation imposes more stringent requirements, the Enterprise shall ensure full compliance with such elevated standards.
2. Asosiy atamalar	**2. Basic terms**
2.1 **Sanksiya** - bu davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT) tomonidan iqtisodiy sanksiyalar to‘g‘risida qonunlar, me’yoriy hujjatlar va farmonlar shaklida qo‘llaniladigan chora bo‘lib, muayyan uchinchi tomonlar, mamlakatlar, hukumatlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini cheklash yoki nazorat qilinadigan tovarlar yoki xizmatlar harakatini cheklash maqsadida qabul qilinadi.	2.1 **Sanction** - a measure applied by states or international organizations (e.g., the UN) in the form of laws, regulations, and decrees on economic sanctions, aimed at restricting business relations with certain third parties, countries, governments, or limiting the movement of controlled goods or services.

Sanksiyalar muayyan mamlakatlar, alohida shaxslar yoki kompaniyalar bilan bitimlarni amalga oshirishga keng qamrovli taqiqlar, savdo cheklovlari (shu jumladan eksport va importni nazorat qilish), aktivlarni muzlatish va sayohatlarni taqiqlash kabi ko‘rinishdagi moliyaviy sanksiyalar bo‘lishi mumkin. Ushbu cheklovlarning mazmuni va darajasi turlicha bo‘lib, istalgan vaqtda ogohlantirishsiz o‘zgartirilishi mumkin. **Birlamchi sanksiyalar** to'g'ridan-to'g'ri sanksiyalar dasturining diqqat markazida bo'lgan jismoniy shaxslarga, mamlakatlarga yoki tashkilotlarga qarshi qaratilgan. **Ikkilamchi sanksiyalar** ushbu **birlamchi sanksiyalar** ob'ektlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan uchinchi tomonlarga qaratilgan.	Sanctions can take the form of financial sanctions such as comprehensive prohibitions on transactions with certain countries, individuals, or companies, trade restrictions, asset freezes, and travel bans. The content and extent of these restrictions vary and can be changed at any time without warning. **Primary sanctions** directly target the individuals, countries, or entities that are the focus of the sanctions program. **Secondary sanctions** are directed at third parties who engage with those primary targets.
2.2. Sanksiyaviy nazorat - davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan sanksiyalarga rioya qilish maqsadida ishlab chiqilgan ichki qoidalar va protseduralar tizimi.	2.2. **Sanctions control** - a system of internal rules and procedures aimed at complying with sanctions imposed by the states or international organizations.
2.3 **Eksport nazorati** - harbiy maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, muayyan tovarlar, dasturiy ta’minot, asbob-uskunalar, texnologiyalar (masalan, harbiy va tijorat maqsadlarida ham foydalanish mumkin bo‘lgan buyumlar) eksporti, reeksporti, o‘tkazilishi, tranziti va vositachiligini cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.	2.3 **Export control** - a set of measures aimed at restricting the export, re-export, transfer, transit, and intermediation of specific goods, software, equipment, and technologies (for example, items that can be used for both military and commercial purposes) that could be used for military purposes.
III. Siyosatni amalga oshirish	**III. Policy implementation**
3.1. Umumiy qoidalar	**3.1. General Provisions**
3.1.1. Korxonaning ushbu Siyosati Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonun va qoidalarga to‘liq rioya qilish, ulardan chetlanmaslik yoki ularning buzilishiga olib keladigan shuningdek, sanksiyalarga tushuvchi harakatlardan tiyilishdan iborat.	3.1.1. The Enterprise’s Policy is to ensure full compliance with sanctions laws and regulations, to refrain from actions that may lead to violations, and to avoid any activities that are subject to sanctions.
3.1.2. Korxona sanksiya xavfini ichki tartib-qoidalarga muvofiq, xususan, bitimlar tuzishdan oldin mavjud birlamchi va ikkilamchi sanksiyalarni aniqlash uchun kompleks dastlabki tekshiruv (Due Diligence) va potensial hamkorlarning xatarlarini baholash orqali boshqaradi. Shuningdek, mavjud hamkorlarni, ayniqsa xavf darajasi yuqori bo‘lgan yurisdiksiyalarda ro‘yxatdan o‘tgan kompaniyalarni davriy tekshirish va baholash ta’minlanadi. Tekshiruv jarayoni mavjud yoki yangi hamkorning mol-mulki arrest ostidaligi, sanksiya qo‘llaniladigan shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostida ekanligini aniqlashga qaratilgan.	3.1.2. The Enterprise shall manage sanction risks in accordance with its internal regulations, particularly through the implementation of comprehensive due diligence procedures designed to identify existing primary and secondary sanctions and risks associated with potential partners prior to the conclusion of transactions. Furthermore, the Enterprise shall conduct periodic inspections and evaluations of current partners, with particular emphasis on entities registered in high-risk jurisdictions. The verification process is intended to ascertain whether the assets of either existing or prospective partners are subject to seizure or are owned or controlled by individuals who are subject to sanctions
3.1.3. Sanksiya choralariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida Korxona sohaviy, mahsulot yoki texnologik sanksiyalar qo‘llanilishi mumkin	3.1.3. To ensure compliance with sanctions, the Enterprise shall also conduct export control on all products in the supply chain that may be subject to

bo‘lgan ta’minot zanjiridagi barcha mahsulotlarni eksport nazoratidan o‘tkazadi.	industry-specific, product-related, or technological sanctions.
3.1.4. Korxonaning Ijro etuvchi organi va bo'linmalari rahbarlari o‘z bo‘linmalarida ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun javobgardir. Bosh yuriskonsult ushbu Siyosat va tegishli ichki sanksiyaviy komplayens tartib-qoidalarini joriy etish uchun mas’uldir. Sanksiyalar bo‘yicha majburiy o'qitish sub'ekti sifatida belgilanadigan korxonaning barcha xodimlari sanktsiyalarga rioya qilish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etishlari shart.	3.1.4. The heads of the Executive body and divisions of the Enterprise are responsible for implementing this Policy within their respective divisions. The Chief Legal Officer is responsible for implementing this Policy and related internal sanctions compliance procedures. All employees of the Enterprise identified as subjects to mandatory training on sanctions are required to participate in the scheduled training sessions on sanctions compliance.
3.2. Bosh yuriskonsult	**3.2. Chief Legal Officer**
3.2.1. Bosh yuriskonsult Korxonaning sanksiyaviy komplayens funksiyalarini bajaradi. Xususan, Bosh yuriskonsult ushbu siyosatga, shuningdek Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonun va qoidalarga rioya etishga qaratilgan siyosat va tartib-qoidalarni amalga oshirish hamda nazorat qilish uchun mas’uldir	3.2.1. The Chief Legal Officer is tasked with executing the sanctions compliance functions of the Enterprise. Specifically, the Chief Legal Officer holds the responsibility for the implementation and oversight of policies and procedures designed to ensure adherence to this Policy, as well as to applicable Sanctions Laws and Regulations.
3.2.2. Bosh yuriskonsult Korxonaga aloqador shaxslarni Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonun va qoidalardagi muhim o‘zgarishlar haqida xabardor qiladi, shuningdek, so‘rovga binoan aniq vaziyatlar bo‘yicha maslahatlar va tavsiyalar beradi.	3.2.2. The Chief Legal Officer shall duly inform Persons associated with the Enterprise regarding any substantial modifications to Sanctions Laws and Regulations. Furthermore, it shall provide guidance and recommendations pertaining to specific circumstances upon request.
3.3. Korxonaga aloqador shaxslarning javobgarligi	**3.3. Responsibility of Persons associated with the Enterprise**
3.3.1. Korxonaga aloqador shaxslar hech qanday operatsiyalar, shu jumladan moliyaviy operatsiyalar, ushbu Siyosatni buzgan holda amalga oshirilmasligini ta’minlash uchun javobgardirlar. Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonun va qoidalarni buzish Korxona va/yoki uning mansabdor shaxslari hamda xodimlari uchun tegishli javobgarlik yoki pul jarimalariga olib kelishi, shuningdek, obro‘siga putur yetkazishi mumkin.	3.3.1. Persons associated with the Enterprise are responsible for ensuring that no operations, including financial transactions, are carried out in violation of this Policy. Any violation of Sanctions Laws and Regulations may result in appropriate liability or monetary penalties for the Enterprise and/or its officials and employees, as well as damage to its reputation.
3.3.2. Agar Korxonaga aloqador shaxslar o‘zlari ishtirok etayotgan yoki xabardor bo‘lmagan biror faoliyatga nisbatan sanksiyalar qo‘llanilishiga ishonchi komil bo‘lmasa, bunday shaxslar zudlik bilan Korxonaning Bosh yuriskonsulti bilan maslahatlashishlari lozim.	3.3.2. In the event that Persons associated with the Enterprise are uncertain regarding the applicability of sanctions to any activities in which they are engaged or of which they are aware, it is imperative that they promptly seek guidance from the Chief Legal Officer of the Enterprise.
3.3.3. Korxonaga aloqador shaxslar ushbu Siyosat bilan tanishib chiqishlari va sanksiyalar masalalari bo‘yicha tegishli o‘quv dasturlarida ishtirok etishlari shart. Ushbu talabga rioya qilmaslik tegishli javobgarlikka tortilish uchun asos bo‘lishi mumkin.	3.3.3.Persons associated with the Enterprise are obligated to thoroughly familiarize themselves with this Policy and participate in all relevant training programs related to sanctions matters. Noncompliance with this requirement may result in appropriate disciplinary measures.

3.4. Sanksiyalar masalalari bo‘yicha o‘qitish va aloqa	**3.4. Training and communication on sanctions issues**
3.4.1. Bosh yuriskonsult uchinchi tomonlar bilan bitimlar tuzishda yoki operatsiyalarni qayta ishlashda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan xodimlar doirasini, shuningdek, boshqa sabablarga ko‘ra sanksiyalar bo‘yicha o‘qitilishi zarur bo‘lgan shaxslarni aniqlaydi	3.4.1. The Chief Legal Officer shall identify the range of employees who may be involved in concluding transactions or processing operations with third parties, as well as persons who, for other reasons, need to be trained on sanctions.
3.4.2. Bosh yuriskonsult Siyosatga rioya qilish bo‘yicha o‘qitish va treninglarni o‘tkazishni ta’minlaydi.	3.4.2. The Chief Legal Officer shall provide training and instructions on compliance with this Policy.
3.4.3. Sanksiyalar bo‘yicha boshlang‘ich o‘qitish ushbu Siyosat e’lon qilingan kundan boshlab 60 kun ichida o‘tkazilishi lozim. Keyinchalik, bunday o‘qitish ishga qabul qilingan kundan boshlab 30 kun ichida, shuningdek, sanksiyalar bo‘yicha majburiy o‘qitish talabi qo‘llaniladigan barcha shaxslar uchun har yili o‘tkazilishi kerak.	3.4.3. Initial training on sanctions must be conducted within 60 days from the date of announcement of this Policy. Subsequently, such training must be conducted within 30 days from the date of hiring, as well as annually for all persons subject to mandatory training on sanctions.
3.4.4. Korxona Korxonaga aloqador shaxslarni taqiq yoki cheklovlardagi muhim o‘zgarishlar (masalan, sanksiyalar joriy qilingan yangi mamlakatlar yoki biron-bir mamlakatga nisbatan yangi sanksiyalar) haqida xabardor qilishni ta’minlaydigan mexanizmlarni yaratadi.	3.4.4. The Enterprise establishes mechanisms to ensure that Persons associated with the enterprise are promptly informed about significant changes in prohibitions or restrictions (for example, new countries subject to sanctions or new sanctions against any country).
3.5. Ehtimoliy qoidabuzarliklar haqida xabar berish	**3.5. Reporting potential violations**
3.5.1. Korxonaga aloqador shaxs har qanday taxmin qilinayotgan qoidabuzarliklar haqida Bosh yuriskonsultiga xabar berishi shart. Agar bunday qoidabuzarliklar Bosh yuriskonsultning o‘ziga taalluqli bo‘lsa, Korxonaga aloqador shaxs taxmin qilinayotgan qoidabuzarlik haqida ma’lumotga ega bo‘lgach, bu haqda bevosita Korxonaning tegishli boshqaruv organiga xabar berishi lozim.	3.5.1. Any Person associated with the Enterprise is required to report any suspected violations to the Chief Legal Officer . In instances where such violations pertain to the Chief Legal Officer, the Person associated with the enterprise must report the suspected violation directly to the relevant governing body of the Enterprise immediately upon becoming aware of the information.
3.5.2. Taxmin qilinayotgan qoidabuzarlik haqida vijdonan xabar bergan shaxsga yoki bunday xatti-harakatda ayblovlarni tergov qilishda ishtirok etayotgan shaxsga nisbatan jazo choralarini qo‘llagan har qanday shaxs tegishli intizomiy javobgarlikka tortilishi shart.	3.5.2. Any person who applies punitive measures against an individual who has conscientiously reported a suspected violation or who is participating in the investigation of such allegations shall be subject to appropriate disciplinary action.
IV. Yakuniy qoidalar	**IV. Final provisions**
4.1. Ushbu Siyosatda nazarda tutilgan tartib-qoidalar Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonunlar va qoidalarda yoki milliy qonunchilikda jiddiy o‘zgarishlar yuz berganda hamda zarurat tug‘ilishi	4.1. The procedures outlined in this Policy shall be reviewed and updated in the event of significant changes in Sanctions laws and regulations or national legislation, and as necessary.

bilan qayta ko‘rib chiqilishi va yangilanishi lozim.	
4.2. Sanksiya talablariga oid tekshiruv qaydlari, shuningdek, keng qamrovli tekshiruv tadbirlari bo‘yicha hujjatlar (asl nusxalari, elektron nusxalari yoki boshqa nusxalari) kamida besh (5) yil davomida saqlanishi shart.	4.2. Records of sanctions-related reviews, as well as documents (originals, electronic copies, or other copies) pertaining to comprehensive review activities must be retained for at least five (5) years.
4.3. Ushbu Siyosatga rioya qilmaslik Korxonaning obro‘siga putur yetkazishi, uchinchi tomonlar bilan munosabatlarga zarar yetkazishi, tegishli javobgarlikka, fuqarolik da’volariga, jarimalarga va Korxona hamda Korxonaga aloqador shaxslar uchun boshqa sanktsiyalarga olib kelishi mumkin.	4.3. Noncompliance with this Policy may adversely affect the Enterprise’s reputation, jeopardize relationships with third parties, and result in potential liabilities, civil claims, fines, and other sanctions imposed upon both the Enterprise and the Persons associated with the Enterprise.
4.4. Siyosat zarur bo'lganda yoki qonun hujjatlariga yoki ichki normativ hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin.	4.4. The Policy may be amended and supplemented as needed or in the event of changes and additions to legislation or internal regulatory acts.
4.5. Siyosat korxona Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangandan kundan boshlab kuchga kiradi.	4.5. The Policy shall come into effect immediately upon its approval by the Supervisory Board of the Enterprise.